

## INKLYUZIV TA'LIMDA O'QITUVCHINING ROLI VA KOMPETENSIYALARI.

**Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi**

Oriental universiteti

„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi” kafedrası o'qituvchisi

**Doniyarova Dilnoza Zakirovna**

Oriental Universiteti Samarqand kampusi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi.

**Anotatsiya.**Maqolada Inklyuziv ta'limda bo'layotgan kamchiliklar, ta'lim jarayonida bo'ladigan o'zgarishlar, o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, shaxsiy sifatlarni qo'llab-quvvatlash va amaliy tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish. Inklyuziv ta'limga qaratilayotgan, qilinayotgan amaldagi ishlar.

### **Kalit so'zlar:**

"Inklyuziv ta'lim", o'qituvchi, ta'lim, logoped, psixolog, defektolog roli, kompetensiyasi.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются существующие недостатки инклюзивного образования, изменения, происходящие в образовательном процессе, вопросы профессионального развития учителей, поддержка личностных качеств, а также расширение возможностей обмена практическим опытом. Освещаются проводимые и реализуемые на практике меры, направленные на развитие инклюзивного образования.

**Ключевые****слова:**

«Инклюзивное образование», учитель, образование, роль логопеда, психолога, дефектолога, компетенции.

**Annotation**

The article examines the existing shortcomings in inclusive education, changes occurring in the educational process, professional development of teachers, support of personal qualities, and expansion of opportunities for sharing practical experience. It also highlights ongoing efforts and implemented measures aimed at developing inclusive education.

**Keywords:**

“Inclusive education,” teacher, education, the role of speech therapist, psychologist, special education specialist, competencies.

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchilarning roli va ularning kasbiy tayyorgarligi masalalari tahlil etilgan. Inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashdagi kompetensiyasi, psixolog tayyorgarligi hamda shaxsiy fazilatlariga bog'liqligi asoslanib beriladi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning metodik kommunikativ va psixologik-pedagogik malakalarini rivojlantirishning dolzarbligi yoritiladi. Inklyuziv ta'lim bugungi ta'lim siyosatining va amaliyotining markaziy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. U barcha bolalarning jumladan, maxsus ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning ham sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan xalqaro tamoyildir.

Ta'lim jarayonida inklyuziv yondashuvni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarda nazariy bilimlar bilan birgalikda pedagogik strategiyalar-defferensial ta'lim moslashtirilgan baholash va hamkorlikda dars o'tish kabi usullar bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllanishi kerak. Nazariy kurslar va seminarlar muhim bo'lsada,

real sinf sharoitida murakkab vaziyatlarni boshqarishni o'rgatadigan amaliy mashg'ulotlar, modellar, mentorlik va sinfda qo'llash tajribalari eng samarali yo'l hisoblanadi. Tadqiqot metodiyasi inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning roli va tayyorgarligi. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchilarning o'rganish ilmiy tadqiqotning metodologik asoslar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi.

1. Insonparvarlik va demokratik yondashuv har bir bolaning ta'lim olish huquqi ta'minlanadi.

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv-o'qituvchi faoliyati bolalarning individual ehtiyojlari va qobiliyati moslashishi.

3. Ijtimoiy integratsiya nazariyasi ta'lim muassasasida barcha bolalarning jamoaga to'liq qo'shilishi kompetensiyaviy yondashuv-o'qituvchining kasbiy, kommunikativ va psixologik kompetensiyalari mezon sifatida ko'riladi.

4. Tajriba va natijalar Adabiyotlarni o'rganish natijasida shuni ko'rdikki, inklyuziv ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillar.

–kasbiy kompetensiyasi

–(metodik, psixologik, kommunikativ)

–shaxsiy sifatlar (bag'rikenglik, sabr, empatsiya)

–innovatsion yondashuv hisoblanadi. Xorijiy manbalarda (Ainscow 2005-yil; Florian 2012-yil) ta'kidlanishicha, maxsus tayyorgarlikdan o'qituvchilar inklyuziv sinflarda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar.

O'zbekiston adabiyotlarida esa (2020-yil; Karimova G 2021-yil) amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish va metodik qo'llanmalar yaratish zarur ekanligi aytiladi o'tkazilgan so'rovnomada quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

–o'qituvchilarning 65%i inklyuziv ta'limda ishlashga ijobiy qarashni bildirgan, ammo metodik ko'nikmalar yetarli emasligini tan olgan.

–25% o‘qituvchilar esa psixologik qiyinchiliklarni(stress,muloqotdagi noqulaylik)asosiy muammodaligini ta'kidlashgan.

–10% o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lib,ular o‘z faoliyatida moslashuvchan metodlardan foydalanayotganini qayd etgan.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki,maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilarning sinfdagi faoliyati samarali bo‘lib,ular bolalarning ijtimoiy moslashuviga ko‘proq hissa qo‘shmoqda.

Qiyosiy tahlil:Xorijiy tajriba AQSH,Kanada va Yevropa davlatlarida Inklyuziv ta'lim bo‘yicha o‘qituvchi uchun maxsus kurslar,malaka oshirish dasturlari va mentorlik tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda normativ huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da,amaliyotda o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash dasturlari amalda emas.

Asosiy muammolarni aniqlanishi

–o‘qituvchilarni maxsus metodik bilim va ko‘nikmalar yetarli emas

–psixologik tayyorgarlik past darajada

–hamkorlikda ishlash(psixologik,defektolog,logoped)mexanizimli to‘liq yo‘lga qo'yilmagan

–Ta'lim muassasalarida zaruriy sharoitlar(moslashtirilgan sinf xonalari,texnik vositalar)cheklangan.Inklyuziv ta'lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi asosiy shart ekanligi-maxsus tayyorgarlikdan o‘qituvchilar nafaqat fan mazmunini yetkazadi,balki psixologik quvvatlovchi rolini ham muvaffaqiyatli bajaradi.

–Inklyuziv sinflarda muvaffaqiyatning muhim omillari sifatida defferensial yondashuv,epmatsiya,ijtimoiy metodlar bilan ishlash va hamkorlikda belgilanadi.

O‘zbekiston sharoitida muvaffaqiyatning qayta tayyorlash kurslari amaliy seminarlar va xorijiy talablarni o‘zlashtirish, kuchaytirish zarur.

### **Xulosa**

Inklyuziv ta'lim tizimi jamiyatda barcha bolalarning teng ta'lim huquqini ta'minlashga qaratilgan. Uning avvalo, o'qituvchining roli va tayyorgarligiga bog'liqdir. Adabiyot tahlil va olimlar tadqiqotlari ahuni ko'rsatdiki, o'qituvchi inklyuziv ta'lim jarayonining asosiy subyekti bo'lib, ular nafaqat bilim beruvchi, balki qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi shaxs sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim-tarbiya sohasida rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1, Z. Nishonova va G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" 2006, 2013 va 2017-yillarda nashr etilgan.
2. "Inklyuziv ta'lim" - Ilhom Madatov (110 bet)
3. "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" D. Sh. Nafasov. I. X. Ruzimova. I. Q. Sayfullayeva va N. D. Djabbarova
4. "Inklyuziv ta'lim va pedagogika innovatsiyalar" (2[21]) D. Sh. Karimova